




**Bankni strategik rivojlantirish
departamenti**

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

26 noyabr, 2026 yil

SQB,NBU,AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi (yanvar 2025 yildan 26 yanvar 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,317% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 6,221% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 6,22% – 6,498% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,349% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va 9,289% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 9,269% – 9,519% gacha o'zgarib turdi.



NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,013% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 5,9% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,9-6,219% gacha o'zgarib turdi.



IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,289% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,137% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,130-6,401% gacha o'zgarib turdi.




AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,479% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,403% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,398-6,717% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,63-3,75% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,64% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u barqaror bo'lib, 3,64% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,038% (3 oylik) va 2,157% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,157% (6 oylik) va 2,038% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O'zbekiston valyuta bozori

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 1 096,3 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 349,5 million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 12 051 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib 12 084 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya 0,67% ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi



26.01.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs B SQB bankda qayd etilgan – 12 090 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 12 100 – 12 145 so'm atrofida o'zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs Agrobank da qayd etilgan – 12 045 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 12 045 – 12 025 so'm atrofida bo'lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)



Rubl mustahkamlanmoqda

2026 yil 19–23 yanvar kunlari davomida AQSh dollarining Rossiya rubliga nisbatan kursi barqaror pasayish tendentsiyasini namoyon etdi. Mazkur davrda USD/RUB kursi bir dollar uchun 78,4 rubldan 76,5 rublgacha pasaydi, bu esa jami 1,9 rubl yoki taxminan 2,4 foizga teng qisqarishni anglatadi.

Yanvar oyi oxirida rubl sezilarli darajada mustahkamlandi: bir necha kun ichida dollar kursi qariyb ikki rublga pasaydi. Harakat barqaror xarakterga ega bo'lib, yuqori volatillik bilan kuzatilmadi. Bu holat jarayon spekulativ faollik emas, balki fundamental omillar ta'siri ostida shakllanayotganini ko'rsatadi.



Rubl yuanga nisbatan mustahkamlandi

2026 yil 19–23 yanvar kunlari rubl Xitoy yuaniga nisbatan bosqichma-bosqich mustahkamlanishni namoyish etdi. Ushbu davrda CNY/RUB kursi 10,9 darajadan 10,6 gacha pasaydi.

Valyuta kursining harakati silliq va barqaror bo'lib, keskin tebranishlarsiz kechdi, bu esa valyuta bozoridagi muvozanatli vaziyatni aks ettiradi. Tahlilchilarning fikriga ko'ra, rubl kursining keyingi dinamikasi tashqi iqtisodiy omillar hamda Rossiya va Xitoy o'rtasidagi savdo oqimlariga bog'liq bo'ladi.




EUR/USD barqaror o'sishni namoyish etmoqda


Yevro AQSh dollariga nisbatan ishonchli tarzda mustahkamlanmoqda. 19–23 yanvar kunlarini o'z ichiga olgan haftada EUR/USD kursi 1,1637 darajadan 1,1833 gacha oshdi, bu qariyb 2 foizlik o'sishga teng.

Kurs harakati silliq va barqaror bo'lib, keskin tebranishlarsiz kechdi. Bu holat bozorning iqtisodiy omillarga puxta va muvozanatli munosabatini ko'rsatadi. Tahlilchilarning ta'kidlashicha, yevroning o'sishi Yevropa va AQShdagi kuchli iqtisodiy ko'rsatkichlar, shuningdek, monetar siyosat bo'yicha kutilmalar bilan qo'llab-quvvatlanmoqda. Barqaror dinamika amaldagi trend spekulativ xarakterga ega emasligini anglatadi.


USD-RUB dinamikasi



RUB-YUAN dinamikasi




EUR-USD dinamikasi




Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlar dinamikasi
(bir untsiya uchun,
AQSh dollarida)



Brent nefti narxlar dinamikasi
(bir barrel uchun,
AQSh dollarida)



TTF gaz narxlar dinamikasi
(megavatt-soat uchun,
AQSh dollarida)



Oltinning jahon narxlar tarixiy maksimumni yangiladi va bir untsiya uchun 4 982,6 dollardan oshdi



Jahon bozorida oltin narxi tarixda ilk bor bir troya unsiyasi uchun \$5 000 darajasidan oshdi. Qimmatbaho metall narxi jadal sur'atlarda oshishda davom etmoqda: 2025 yil boshidan buyon oltin 60 foizdan ko'proqqa qimmatlashdi.

Kotirovkalarning o'sishi global moliyaviy va geosiyosiy beqarorlik fonida qo'llab-quvvatlanmoqda. Investorlar savdo mojarolari, xalqaro munosabatlardagi keskinlik hamda jahon iqtisodiyoti sekinlashishi haqidagi kutilmalarga faol munosabat bildirmoqda.

AQSh savdo siyosatida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar ham bozorlarga qo'shimcha bosim o'tkazmoqda. Shu bilan birga, oltinga bo'lgan talab yuqori darajada saqlanib qolmoqda, markaziy banklar esa o'z oltin-valyuta zaxiralarini faol ravishda to'ldirmoqda.

Jahon bozorida Brent nefti mustahkamlanmoqda



O'tgan hafta Brent markali neft narxi mo'tadil o'sishni namoyish etib, bir barrel uchun \$65,88 darajasiga yetdi. 19-yanvardan buyon narx qariyb 3 foizga oshdi, shu bilan birga bir necha dollar doirasida kichik tebranishlar kuzatildi.

Narxlarning o'sishi qazib olish hajmining qisqarishi kutilmalari, geosiyosiy keskinlik hamda jahon bozorida talabning barqarorligi bilan qo'llab-quvvatlanmoqda. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, qisqa muddatli volatillik saqlanib qolmoqda, biroq o'rta muddatli prognozlar nisbatan barqarorligicha qolmoqda.

TTF gaz narxlar oshmoqda



So'nggi bir hafta ichida TTF gaz narxi bir megavatt-soat uchun \$41,8 dan \$48 gacha oshib, qariyb 15% o'sdi. Narxlar sovuq ob-havo kutilmalari, Yevropada talabning oshishi va yetkazib berish cheklovlari bilan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Gaz bozori geosiyosiy omillar va logistika holatlariga sezgir bo'lib qolmoqda. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, qisqa muddatli tebranishlar mumkin, ammo o'rta muddatli prognozlar nisbatan barqarorligicha qolmoqda.

Yangiliklar

EFG International (Shveysariya)

Shveysariyaning xususiy banki EFG International boshqa bank – Quilvest Switzerland Ltd ni sotib olishini e'lon qildi. Ushbu bitim 2026-yilning uchinchi choragida yakunlanishi kutilmoqda va EFG'ning Shveysariya, Yaqin Sharq va Amerika bozorlaridagi pozitsiyasini mustahkamlashi kutilmoqda.



Raisin Bank “stavkalar urushi”ni olib bormoqda: Germaniyada depozit stavkalari 4,25 % gacha oshmoqda

Raisin Bank hamda boshqa Germaniya kredit tashkilotlari jamg'arma mahsulotlari bo'yicha foiz stavkalarini 3,0–4,25 % gacha oshirmoqda. Bu holat omonatchilar uchun keskin raqobat kuchayganini hamda aholi uchun jozibador shartlar shakllanayotganini anglatadi.



Intesa Sanpaolo (Italiya) “yashil” moliyalashtirishni kuchaytirmoqda

Intesa Sanpaolo barqaror rivojlanish loyihalariga sarmoyalar oshirilganini ma'lum qildi. 2026-yilda bank Italiya va Yevropa Ittifoqidagi ekologik hamda infratuzilma tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni kengaytiradi.



VTB (Rossiya) raqamli bank platformalarini rivojlantirmoqda

VTB banki 2026-yil yanvar oyida biznes va yakka mijozlar uchun yangi onlayn xizmatlarni ishga tushirishini e'lon qildi. Asosiy ustuvor yo'nalishlar — operatsiyalar tezligi va texnologik barqarorlik.

